

## YETIM QALBINING OG'IR IZTIROBI

**Berdimurodova Gulsevar Abdiqayum qizi**

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada badiiy adabiyotdagi yetim bolalar obrazi, ularning ruhiy olami hayot sinovlari qarshisidagi matonati tahlil etiladi. Hayot sinovlari ularni ruhan chiniqtiradi. Ular qiyinchiliklarga qaramay, mehr va yaxshilikka intilishadi. Bu esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Maqolada bosh qahramonlarning og'ir ijtimoiy sharoitlarda ham insoniy qiyofasini saqlab qolishi, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishi kabi insoniy fazilatlar ochib berilgan. Muxtasar qilib aytganda, hayotiy qiyinchiliklar bilan ulg'aygan bolalar ancha og'ir mehnatga chiniqqan va ularning qalbida mehr-muhabbatga bo'lgan ehtiyoj ancha kuchli ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, asarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi va jamiyatda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati chuqur tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** Yetimlik, sabr, sog'inch, iztirob, ona mehri, ko'z yosh, umid, ishonch, azob, adolat, insoniy munosabat.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются образы детей-сирот в художественной литературе, их внутренний мир и стойкость перед жизненными испытаниями. Жизненные трудности закаляют их духу. Несмотря на трудности, они стремятся к добру, милосердию и человечности. Это усиливает воспитательное значение произведения. В статье также раскрываются такие человеческие качества главных героев, как сохранение человеческого облика в тяжелых социальных условиях и умение отвечать на зло добром. В заключение подчеркивается, что дети, выросшие в трудностях, становятся более закаленными, а их потребность в любви и заботе особенно сильна. Также глубоко анализируется воспитательное значение произведения в формировании духовности молодежи и гуманистических чувств в обществе.*

**Ключевые слов:** Сиротство, терпение, тоска, страдание, материнская любовь, слезы, надежда, доверие, боль, справедливость, гуманное обращение.

### ABSTRACT

*This article examines the image of orphan children in fiction, focusing on their inner word and resilience in the face of life's challenges. These hardships strengthen*

*their character and spirit. Despite difficulties, they strive for kindness, compassion and humanity, which enhances the educational value of the work. The article also highlights the moral qualities of the main characters, such as preserving their humanity in harsh social conditions and responding to evil with goodness. In conclusion, it emphasizes that children who grow up facing hardships become stronger, while their need for love and care remains especially profound. The educational significance of the work in fostering moral values and humanistic feelings among young people is also thoroughly analyzed.*

**Key words:** *Orphanhood, patience, longing, suffering, mother's love, tears, hope, trust, pain, justice, human relations.*

## **KIRISH**

Yetim ota-onasi yoki ulardan biri vafot etgan bola. Xalq orasida otasi vafot qilib, yolg'iz qolgan bola „chin yetim“, onasi bilan qolgan bola „gul yetim“, otasi bilan qolgan bola „shum yetim“, otasi ham onasi ham vafot etgan bolalar „tirik yetim“ deb atalgan. Yetimlik-inson hayotidagi eng og'ir sinovlardan biridir. Ota-onasi, yaqinlaridan ayrilib, mehr-muhabbatdan yiroq bo'lishadi. Ularning yo'qligi esa bolaning qalbidagi bo'shliqni, sog'inchni va izzatini uyg'otadi. Mazkur maqolada yetim bolalar obrazining badiiy asarlardagi tahlili va ularning ichki kechinmalarini, jamiyatning shu toifadagi insonlarga bo'lgan munosabati tahlil markaziga qo'yiladi. Biz yetimlik izzatini ortida yashiringan kuchli iroda va mehrga bo'lgan cheksiz ehtiyojining mohiyati yoritilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Inson hayotida mehr va muhabbat eng zarur tuyg'ulardan biridir. Ayniqsa, ota-ona mehri bolaning kamol topishida beqiyos ahamiyatga ega. Ammo taqdir taqozosi bilan ota-onadan ayrilgan yetim bolalar qalbida bu mehrning o'zni bo'sh qoladi. Ahmad Lutfiy Qozonchi o'zining „O'gay ona“ romani orqali isbotlab bergan. Asardagi Ismoil 6 yoshdagi bola bo'lib, bundan 3 yil avval, 3 yoshlarida yetim qolib, o'gay ona qo'lida hayot tashvishlarini ko'tara olishi mushkul bo'lgan qahr-u qiyinchiliklarni, hayot achchig'ini totdi, tayoq yedi. Ko'rgan-kechirganlari ichida tamoman unitgani ona mehri, ona shafqati bo'ldi. Uning uchun ana shu 3 yil 3 asr qadar uzoq kechdi. Shu 3 yil ichida loaqal biror marta tasodifan bo'lsa ham „Jon bolam“ degan so'zni, afsuski eshitmadi. Uning quloqlari bunday yaxshi so'zlariga tashna, qalbi esa zor bo'ladi. Ismoil hamisha Sanihaxonimning bir og'iz shirin so'ziga, onalik mehrga muhtoj edi. Ammo Sanihaxonim Ismoilni jerkar, tayoqlar edi. Sanihaxonim Ismoil yegan tayoqlar jannatdan chiqqan deydi. Ora-sira shunday deyishdan Ismoilni urib zavqlangani kabi zavq olar edi.

Bu asarda shunga o‘xshash yana bir taqdir bor edi .U ham bolalikning eng yaxshi damlarida o‘z tengdoshlari singari erkalanmadi yoki boshqa bolalardek „ Kelding-mi, jon bolam?“ , -degan so‘zni bir bora bo‘lsa ham eshitmadi. Romanda yetim qolgan bolalar hayotning og‘ir sinovlariga duch keladilar. Ota yoki onadan ayrilish bola qalbida katta bo‘shliq qoldiradi. Asardagi yetimlar ham ana shunday ruhiy azoblarni boshidan kechiradilar. Asarda ularning ichki kechinmalarini juda ta’sirli va hayotiy tarzda tasvirlangan.

Bir kuni Husayn bilan Yilmazning ustozlari tozalik o‘tkazdi. O‘sha vaqtda ustozlari hammaga o‘rnak sifatida Husaynning sinfdoshlari yonida maqtaydi. Shunda navbat Yilmazga kelganda uning ust-boshi kir, o‘zi ham bir ahvolda yurgan edi. Ustozlari shunda: „Yilmazning uyini biladiganlar bormi?“ , -deb so‘raganda Yilmaz yig‘lab yuboradi. Ustozlari sababini so‘raganda Yilmaz shunday deydi: „Agar aytsangiz, tayoq yeyman ustoz. Mening o‘z onam yo‘q, mening onam o‘gay dedi“. Yilmaz bu gaplarni aytar ekan yig‘lay boshladi. Yig‘i aralash qo‘shib qo‘ydi: „Aytganim bilan bajararmidi!? Battar urardi“. Yana yig‘lashga tushdi. Shu vaqt Husayn Yilmazning qo‘lidan tutdi va yonma-yon sinfdan chiqishdi. Chashma boshida ikki bola: biri o‘gay ona zulmini, yetimlik mashaqqatlarini totgan; ikkinchisi esa yetimligini bilmagan, ona mehrini ko‘rayotgan yetim edi. Keyin Husayn Yilmazni uyiga olib boradi. Husaynning onasi Fotimaxonim Yilmazning kiyimlarini dazmol qilib yaxshi kuzatadi. Yilmaz o‘z uyiga borishdan iymanar edi. Chunki uni hech kim yaxshi kayfiyatda kutib olmas, erkalamas edi. Yilmaz uyiga har doimgidek emas, balki dazmollangan holda kirib keldi. O‘gay onasi uni har doimgidek jerkib kutib oldi. „Shoshmay tur, hali sen-mi! Otang kelsin, seni kaltaklatmasam-mi, taziringni yeysan holi!“,- deb unga baqirar edi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR.**

Yetimlik haqida ko‘plab tadqiqotchilar, falsafa doktorlari, professor olimlar va shu bilan birgalikda yosh ijodkorlar ham ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Matluba Norbaboyeva “Alvido, bolalik!” qissasida “Yetim bolalar” obrazining poetik talqini haqida, “Folklorda yetimlik motivi” mavzusida his-tuyg‘u va obraz haqida, Ibrohim G‘afurov “Badiiy tafakkur va obrazlar poetikasini o‘rganishda yetim va yolg‘iz bolalar” masalasida ruhiy jarayon haqida, John Bowlby “Bog‘lanish nazariyasi” orqali yetim bolalarning mehrga ehtiyoji va ruhiy holatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan.

Ushbu maqolaning boshqa maqolalardan farqli jihati shundaki, ushbu asarda ikki yetim bolaning taqdiri turli xil o‘tganidadir. Biri yoshligidan onadan yetim qolib ona mehriga intizor bo‘lib, o‘gay onasidan mehr ko‘rmagan yetim, ikkinchisi esa

o'gay onasi hattoki o'z onasining o'rnini bosuvchi, o'z farzandidek e'zozlovchi yetimdir.

### **XULOSA**

Jamiyatdagi har bir inson yetim bolalarga mehr biln munosabatda bo'lsa, ularning qalbida umid va ishonch paydo bo'ladi. Yetimlik dardi dunyodagi eng og'ir azobdir. Asar o'quvchilarni yetim bolalarning ruhiy kechinmalarini his qilishga, ularga mehr va e'tibor bilan qarashga undaydi. Shuningdek, roman inson hayotida ona mehrining naqadar muhim ekanligini yana bir bor eslatadi. Yetim obrazi orqali yozuvchilar insoniylik, mehr-oqibat, adolat kabi insoniylik g'oyalarini ilgari suradilar. Yetimlik orqali jamiyatdagi muammolar, insoniy munosabatlar va mehrning qadri ochib beriladi. Asar tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoda hech qanday boylik yoki e'tibor ona mehrining o'rnini bosa olmaydi. Biroq o'gay ona yoki yaqin insonlari tomonidan ko'rsatilgan samimiy g'amxo'rlik murg'ak qalbining jarohatiga malham bo'lishi, ularni hayotga qaytarishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi. O'gay ona. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000–2005.
3. Jahon adabiyoti jurnali. – 2022. – №1.
4. O'zME: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.